| | STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar 643 Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi | 643 |
| | Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 646 Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi | 646 |
| | O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari 650 Gapparova Mastona Safaraliyevna | 650 |
| | Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish 654 Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi | 654 |
| | Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari 657 Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra | 657 |
| | Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes 665 Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi | 665 |
| | Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish 668 Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li | 668 |
| | Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyaning bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati 672 Usmonov Umid Allayorovich | 672 |
| | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish 676 Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriiddinovna | 676 |
| | Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida 681 Ergashev Nozim Nabiyevich | 681 |
| | Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers 684 Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi | 684 |
| | Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 687 Karimova Charos Abduhalim qizi | 687 |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari 691 Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi | 691 |
| | "Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili 695 Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich | 695 |
| | Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar 699 Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li | 699 |
| | Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 705 Zokirova Nargiza Akbarjonovna | 705 |
| | Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710 Eshnazarova Farida Jo'raqulovna | 710 |
| | Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714 Yaxyayeva Sojida Abduraximovna | 714 |
| | Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718 Berdiyeva Malika | 718 |
| | Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721 Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi | 721 |



| | |
|---|-----|
| Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi | 726 |
| Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi | |
| Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari | 731 |
| Nazarova Mohigul Akmalovna | |
| Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar | 736 |
| Arabova Muxiba Bazarovna | |
| Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств | 740 |
| Хомидова Камола | |
| Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века .. | 744 |
| Бекназаров Собиржон | |
| Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni | 748 |
| Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li | |
| Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari | 752 |
| Bobonorova Qundixan Quralbay qizi | |
| O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi .. | 759 |
| Bobonazarov Orif Abrayqulovich | |
| Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане .. | 764 |
| Мусаева Елена Казимовна | |
| Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi | 767 |
| Sh. L. Rahmonova | |

ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA O'QUVCHILARDA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

[Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi](#)

Farg'ona davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-9875-5254

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksikografik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetentlikka asoslangan ta'lim tamoyillari hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Leksikografik kompetentlik tushunchasiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinib, uning boshlang'ich ta'lim bosqichida shakllanish xususiyatlari, mexanizmlari, metodlari va innovatsion ta'lim texnologiyalari amaliy misollar asosida asoslab berilgan. Maqolada zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik model ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: leksikografik kompetentlik, lug'atlar bilan ishlash, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, kompetentlikka asoslangan yondashuv, leksikologiya, elektron lug'atlar, AKT.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for developing lexicographic competence in primary school students, modern pedagogical approaches, the principles of competency-based education, and the significance of using information and communication technologies in the educational process. Scientific perspectives on the concept of lexicographic competence are analyzed, and the features, mechanisms, methods, and innovative educational technologies for its formation at the primary education stage are substantiated through practical examples. The article also presents a methodological model aimed at developing students' competencies in working with dictionaries in the context of modernizing contemporary primary education.

Key words: lexicographic competence, working with dictionaries, primary education, modern technologies, competency-based approach, lexicology, electronic dictionaries, ICT.

Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методологические основы формирования лексикографической компетентности у учащихся начальной школы, современные педагогические подходы, принципы компетентностно-ориентированного обучения и значение использования информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе. Проанализированы научные взгляды на понятие лексикографической компетентности, а также обоснованы особенности, механизмы, методы и инновационные образовательные технологии её формирования на этапе начального образования на основе практических примеров. В статье также представлена методическая модель развития у учащихся компетенций работы со словарями в условиях модернизации современного начального образования.

Ключевые слова: лексикографическая компетентность, работа со словарями, начальное образование, современные технологии, компетентностный подход, лексикология, электронные словари, ИКТ.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonida o'quvchining nafaqat bilim egallashi, balki ulardan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirish ham ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga yo'naltirilgan hamda kompetentlikka asoslangan ta'lim konsepsiyasining joriy etilishi boshlang'ich ta'lim bosqichida metodik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida leksikografik kompetentlik muhim o'rin tutadi. Ushbu kompetentlik o'quvchining lug'atlardan mustaqil foydalangan holda so'z ma'nolarini farqlash, sinonim va antonimlarni nutqda to'g'ri qo'llash, matndan tushunarsiz so'zlarni aniqlash hamda ularning ma'nosini izohlash kabi ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy didaktikada lug'atlar bilan ishlashni o'rgatishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar, multimedia vositalari, elektron lug'atlar, geymfikatsiya elementlari, interaktiv metodlar va loyiha faoliyatidan foydalanish o'quvchilarda leksikografik kompetentlikni rivojlantirishda sezilarli samara bermoqda. Mazkur maqolada ushbu kompetentlikning mohiyati, shakllanish bosqichlari hamda uni amaliyotda rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Globalashuv sharoitida ta'lim jarayonini takomillashtirishga qo'yilayotgan asosiy talablardan kelib chiqqan holda, zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning nutqini barcha shakllarida ravon va mazmunli ifoda eta oladigan shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ona tilini rivojlantiruvchi ta'limning samaradorligini baholashda nutq madaniyati, lug'at boyligi va shaxsiy til kompetensiyasi muhim mezonlar sifatida qaraladi.

Ona tilini to'liq egallagan va undan to'g'ri foydalana oladigan lisoniy shaxsni shakllantirish jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarning nafaqat o'quv-bilish faoliyatida turli lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini egallashi, balki ularni bilim manbai, shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini tarbiyalash vositasi sifatida samarali qo'llay olish kompetentligini shakllantirishdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning so'z boyligini oshirish, matnni anglash va mustaqil fikr bildirish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab lug'atlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish masalasi maktab o'quvchilarining til kompetensiyasini rivojlantirishda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, leksikografik kompetentlik turli yo'nalishlarda o'rganilishi zarur bo'lgan tushuncha bo'lib, tilshunoslik va leksikografiyada muhim nazariy konsepsiya sifatida talqin etiladi. So'nggi yillarda tilshunoslik va pedagogika sohaslarida faol qo'llanila boshlagan "leksikografik kompetentlik" atamasi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. V. D. Chernyakning ta'kidlashicha, lug'atlarga ongli ravishda murojaat qilish zarurati muayyan kommunikativ va kognitiv vazifalarni ma'lumotnoma nashrining turi bilan to'g'ri bog'lash, lug'atni o'qish hamda lug'at maqolasidan zarur ma'lumotlarni to'liq va adekvat ajratib olish qobiliyati bilan izohlanadi. Lug'atlar bilan ishlash nafaqat filolog mutaxassislar, balki o'quv faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha subyektlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy, mantiqiy, obrazli, assotsiativ va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda ravon hamda bexato ifodalash malakasini shakllantirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlarga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Yosh avlod qalbiga ona tilini bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatish zarurligi alohida ta'kidlanadi¹. Bu esa o'quvchilarning o'zbek tilida ravon o'qish, ravon yozish va teran fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflar uchun ona tili dasturi o'quvchilarning nutqiy qobiliyatlari doirasini belgilab, fonetika, grammatika, imlo va nutqni rivojlantirish sohaslarida ularning to'rt yillik ta'lim jarayonida izchil shakllanishini nazarda tutadi. Bolalar maktabga kirgan davrda kundalik nutq tajribasiga ega bo'lsalar-da, ularning so'z boyligi ko'pincha cheklangan bo'lib, maktabda o'zlashtiriladigan tushuncha va g'oyalarni to'liq ifodalash uchun yetarli bo'lmaydi. Aynan shu jihat boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni rivojlantirish jarayonida lug'atlar bilan ishlashni tashkil etish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va so'z boyligini kengaytirish jarayonini boshqarishni muhim pedagogik vazifa sifatida qarashni taqozo etadi.

O'quv va uslubiy adabiyotlarda lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi o'zbek tilini boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilariga o'qitishga bag'ishlangan tadqiqotlarda keng yoritilgan. Jahon tilshunosligi va pedagogikasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun lug'atlar bilan ishlash bo'yicha turli metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur manbalarning aksariyatida turli yondashuvlar asosida leksikografik kompetentlikni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Ona tilining turli bo'limlarini o'rganishda lug'atlardan foydalanish imkoniyatlari E. A. Barinova, L. F. Bozhenkova, M. T. Baranov, V. A. Mizina, A. V. Prudnikova,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli/ O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Xalq so'zi, 2019. – № 218.

I. V. Gallinger, Z. A. Potiha, D. E. Rozental, F. I. Virchenko, T. M. Paxnova, L. I. Voznyuk va A. I. Geberle² kabi olimlarning tadqiqotlarida asoslab berilgan.

Shuningdek, L. A. Trostentsova va I. V. Gallinger ona tilini o'zlashtirish tizimining tuzilishini aniqlash hamda undan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlarini belgilash masalalariga e'tibor qaratganlar. Xorijiy tilshunoslikda mazkur yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligi va ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilgan izlanishlarning cheklanganligi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda lug'atlar bilan ishlashning umumiy yo'l-yo'riqlari va manbalariga oid ayrim metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni mavjud ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondiradi, deb baholash hali imkon bermaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy-pedagogik materiallar tizimli ravishda tahlil qilindi. Ma'lumotlarni yig'ishda ilmiy manbalarni o'rganish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy solishtirish hamda ilg'or amaliy tajribalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'atlar bilan ishlashga oid mavjud metodik yondashuvlar o'rganilib, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri chuqur tahlil qilindi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida analitik va sintez metodlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda induktiv va deduktiv yondashuvlar asos qilib olindi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, elektron va multimedia lug'atlardan foydalanish tajribalari tizimli ravishda tahlil etilib, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy hamda leksikografik kompetentlikni rivojlantirishdagi samarali imkoniyatlari ilmiy asosda asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rta maktablarda, jumladan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatida lug'atlardan foydalanish masalalari ona tilini o'qitish metodikasida nisbatan so'nggi yillarda tizimli ravishda ko'rib chiqila boshlandi³. Mazkur yondashuvning amaliyligi boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga mos maxsus elektron lug'atlarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida interaktiv vosita sifatida qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Elektron o'quv lug'atlar o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi, so'z boyligini kengaytiradi hamda so'z va matni anglash, talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu vositalar o'quvchilarning individual o'quv ritmini inobatga olgan holda, har bir o'quvchiga moslashuvchan ta'lim muhitini tashkil etish imkonini yaratadi. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'atlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari uyg'unlashib, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni samarali tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar vujudga keladi. Bu jarayon o'z navbatida o'zbek tilini rivojlantiruvchi ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarning lisoniy shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy leksikografik kompetentlik boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli lug'atlar bilan mustaqil ishlay olish, so'z va so'z birikmalarining ma'nosi, uslubiy xususiyatlari hamda imlosiga doir ma'lumotlarni topish va qo'llay bilish ko'nikmalari majmuini ifodalaydi. Ushbu kompetentlik erta yoshdan shakllantirilganda, o'quvchilarning ona tili bo'yicha bilim darajasi, o'qib tushunish, ya'ni matni anglash ko'nikmalari hamda umumiy kommunikativ madaniyati izchil rivojlanadi. Ilmiy manbalarda leksikografik kompetentlik nutqiy rivojlanishning

2 Баринава Е.А., Боженкова Л.Ф., Козлова Н.А. О самостоятельной работе учащихся при изучении родного языка. М.: Просвещение, 1963. - 152 с.Боженкова Л.Ф., Мызина В.А. Работа со словарями. Лекции для учителей.- Таллин, 1976. 83 с.Баранов М.Т. Работа со словарями на уроках русского языка в IV-V классах // Из опыта работы по русскому языку в восьмилетней школе: Пособие для учителя / Сост. Т.А. Злобина. М.: Просвещение, 1974.- 240 с.Мызина В.А. Привитие учащимся навыков самостоятельной работы со словарями справочниками на уроках русского языка. Таллин, 1980. -157 с.Прудникова А.В. Лексика в школьном курсе русского языка. М.: Просвещение, 1979.- 144 с.Галлингер И.В. О работе со справочной лингвистической литературой на уроках русского языка в 4-6 классах // Русский язык в школе. 1986.-№2.-С. 24-31. Потиха З.А., Розенталь Д.Э. Лингвистические словари и работа с ними в школе. М.: Просвещение, 1987. - 128 с.Вирченко Ф.И. Использование лингвистических словарей на занятиях по русскому языку в средней школе. 2-е изд. перераб. и доп. - Майкоп: Адыг. Респ. кн. изд-во, 1993.- 230 с. Л.В. ВознюкУчебный анализ синонимов и антонимов с помощью школьных словарей // Русский язык в школе. 1996.- № 6.- С. 20-23.Геберле А.И. Подготовка к сочинению с использованием лингвистических словарей // Русский язык в школе. 1989.- № 2. - С. 11-15.

3 Rustamova D. T. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Farg'ona – 2020 J:130s. Muhtoriy M.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqini o'stirishda mnemotexnik usullardan foydalanish (iboralar va maqollar misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Farg'ona – 2020 64-bet J:130s. Xusanova G.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zid ma'noli so'zlarni lingvokognitiv aspektida o'rgatish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Farg'ona – 2020 64-bet J:130s.



muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. O'quvchilar tomonidan til birliklarini ongli o'zlashtirish va ularni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo'llash umumiy til kompetentligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, lug'atlar bilan mustaqil ishlash, so'z ma'nosini izohlash va uning qo'llanish xususiyatlarini aniqlashga oid ko'nikmalar o'quvchilarning til haqidagi bilimlarini chuqurlashtirib, ularning nutqiy va kognitiv faoliyatini yanada faollashtiradi. Shu sababli leksik birliklar ustida ishlash jarayonida, avvalo, leksikografik kompetentlikning mazmuni va tarkibiy tuzilishini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilarning yondashuvlariga ko'ra, leksikografik kompetentlik bir necha o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topadi. Ularning tarkibida lug'at turlari, so'z ma'nosi, ko'p ma'nolilik, omonim, sinonim va antonimlar haqidagi bilimlarni qamrab oluvchi kognitiv jihatlar, lug'atdan foydalanish usullari, so'zlarni izlab topish va elektron lug'at interfeysida erkin ishlashni ta'minlovchi operatsion ko'nikmalar, ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va zamonaviy lug'atlardan foydalanishga ijobiy munosabatni ifodalovchi motivatsion jihatlar hamda lug'atdan olingan ma'lumotlarni nutqda to'g'ri qo'llash va matn bilan ishlashga oid kommunikativ malakalar muhim o'rin egallaydi. Xulosa qilib aytganda, leksikografik kompetentlik o'quvchining til va nutq faoliyatida lug'atlardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalab, kognitiv, operatsion, motivatsion va aksiologik komponentlarning uzviy birligini ta'minlaydi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, u nutqiy, lingvistik va metalingvistik malakalarni shakllantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Metodik nuqtayi nazardan, leksikografik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich shakllantirish, lug'at bilimlarini nutqiy faoliyatning turli turlari bilan integratsiyalash, o'quvchilarning kognitiv faolligini rag'batlantirish, individual yondashuv va moslashuvchanlikni ta'minlash hamda refleksiv faoliyatni qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillarga tayangan holda samarali amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu nuqtai nazardan, leksikografik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat til bilimlarini mustahkamlash, balki o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ hamda metalingvistik malakalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodik jihatdan ushbu jarayonni tashkil etishda zamonaviy elektron lug'atlardan foydalanish ayniqsa muhim bo'lib, bunda gradatsiya, integratsiya, kognitiv faollikni rag'batlantirish, individual yondashuv hamda refleksiv faoliyat tamoyillari asosiy rol o'ynaydi. Natijada pedagogik amaliyotda elektron lug'atlar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy va lingvistik salohiyati sezilarli darajada oshadi, ularning til bilan faol ishlashga bo'lgan qiziqishi mustahkamlanadi hamda mustaqil bilim egallash ko'nikmalari izchil rivojlanadi. Shu bilan birga, elektron lug'atlardan foydalanish o'quvchilarga so'zlarning ma'nosini tez va samarali o'zlashtirish, ularni nutqiy kontekstda to'g'ri qo'llash hamda frazeologik birliklar bilan ishlashni amaliy jihatdan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini yanada samarali rivojlantirish maqsadida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida elektron hamda multimedia lug'atlardan tizimli foydalanishni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida lug'at bilan ishlashga yo'naltirilgan interaktiv topshiriqlar, loyiha va izlanish faoliyatiga asoslangan mashqlar ulushini oshirish tavsiya etiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun lug'atlardan foydalanish metodikasiga oid metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish hamda malaka oshirish kurslari mazmuniga kiritish ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli / O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Xalq so'zi, 2019-yil, № 218.
2. Баринава Е. А., Боженкова Л. Ф., Козлова Н. А. О самостоятельной работе учащихся при изучении родного языка. – М.: Просвещение, 1963. – 152 с.
3. Боженкова Л. Ф., Мызина В. А. Работа со словарями. Лекции для учителей. – Таллин, 1976. – 83 с.
4. Баранов М. Т. Работа со словарями на уроках русского языка в IV–V классах // Из опыта работы по русскому языку в восьмилетней школе: пособие для учителя / сост. Т. А. Злобина. – М.: Просвещение, 1974. – 240 с.
5. Мызина В. А. Привитие учащимся навыков самостоятельной работы со словарями и справочниками на уроках русского языка. – Таллин, 1980. – 157 с.
6. Прудникова А. В. Лексика в школьном курсе русского языка. – М.: Просвещение, 1979. – 144 с.
7. Галлингер И. В. О работе со справочной лингвистической литературой на уроках русского языка в 4–6 классах // Русский язык в школе, 1986, № 2. – С. 24–31.
8. Потиха З. А., Розенталь Д. Э. Лингвистические словари и работа с ними в школе. – М.: Просвещение, 1987. – 128 с.



9. Вирченко Ф. И. Использование лингвистических словарей на занятиях по русскому языку в средней школе. 2-е изд., перераб. и доп. – Майкоп: Адыгейское республиканское книжное издательство, 1993. – 230 с.
10. Вознюк Л. В. Учебный анализ синонимов и антонимов с помощью школьных словарей // Русский язык в школе, 1996, № 6. – С. 20–23.
11. Геберле А. И. Подготовка к сочинению с использованием лингвистических словарей // Русский язык в школе, 1989, № 2. – С. 11–15.
12. Rustamova D. T. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2020. – 130 b.
13. Muhtoriy M. S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqini o'stirishda mnemotexnik usullardan foydalanish (iboralar va maqollar misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2020. – 130 b.
14. Xusanova G. T. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zid ma'noli so'zlarni lingvokognitiv aspektda o'rgatish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2020. – 130 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.